O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM TIZIMINI YANGI BOSQICHGA CHIQARISHDA TALABALARNING O‘RNI

Xamzaqulov Erjigit Abdubasharovich - GulDPI “Aniq fanlar” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi,
Xamzaqulova Shaxnoza Shuxrat qizi - GulDU “Boshlangich ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Yangi O‘zbekiston qurayotgan jamiyatimizda har bir islohot, har bir qaror, har bir qonunning negizida yoshlar turadi. Ertangi kunimiz doimgidanda yaxshiroq bo‘lishi yoshlarning bugungi bosayotgan qadamiga, ularning bugungi tanlayotgan yo‘liga bog‘liq.

Kirish so‘zlar: Kredit-modul tizimi, Massachusettes Texnologiya instituti, texnika, IT, muhandislik sohalari, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS. Massachusettes.

Kundan-kun izchillik bilan rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonidagi yangidan-yangi texnologiyalar, yutuqlar, ixtirolar insonni doimo harakatda bo‘lishga undamoqda. Hozirgi aynan biz yashayotgan axborot asri insonlarning bilimini qo‘limizdagi telefon va kompyuterlarni qay darajada tushunishimiz, qay darajada yangiliklarni o‘zlashtira olishimiz bilan belgilab qo‘ymoqda. Texnikalar ta’lim jarayoniga kirib kelayotgani ham quvonarli holat hisoblanadi.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda Oliy ta’lim Kredit-modul tizimiga o‘tishi, 2020-yil karantin vaqtida ta’limning onlayn yo‘lga qo‘yilishi internet tarmog‘idagi bir qancha muammolarni yaqqol ko‘rsatib bergan edi. Ko‘plab muammolarga amaliy echimlar ko‘rilgan bo‘lsada, kamchiliklar hali ham uchramoqda. Xususan, dunyo Oliy ta’lim dargohlarini kuzatar ekanmiz Amerika, Rossiya, Yevropa davlatlari, Yaponiya, Koreya kabi davlatlardagi oliy ta’lim muassasalarida Oliy ta’limning moddiy-texnik bazasi yuqori darajada rivojlangan.

Bo‘lajak oliy ma’lumotli insonlarni jamiyatga tayyor kasb egasi, kadr bo‘lib kirib borishida tilni o‘rgatishni chuqurlashtirish zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Ya’ni oliy ta’limdan talabalar chet tillaridan hech bo‘lmaganda ingliz va rus tillarini tushunadigan, o‘zining ongida rus yoxud ingliz tilidagi so‘zlarni tarjima qila oladigan darajasiga chiqarish g‘oyasini ilgari surmoqchiman. Aytmoqchimanki, magistraturada o‘qishni davom ettirmoqchi bo‘lgan bakalavrda tahsil olayotgan talaba kunlik rejasiga ingliz tilidan pullik tayyorlov kurslarini kiritib olgan. Bu jarayon talabaning darsdan tashqari mashg‘uloti hisoblanadi. Aynan bugungi kunda kuzatilayotgan talabalarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talabini ma’lum miqdorda bo‘lsa ham oliy ta’lim qondirsa, talabalar uchun ancha qulaylik va moddiy yordam bo‘lar edi.

Shuni taklif qilmoqchimanki, oliy ta’limdagi ma’ruza darslari hech bo‘lmaganda 2 tilda bo‘lishini tashkil qilsak. Misol tariqasida ma’ruzalar o‘zbek va ingliz tilida bo‘lishini ko‘rib o‘taylik. Bunda auditoriyalar har bir talaba uchun maxsus audiolarni eshitishga mo‘ljallangan quloqchinlar bilan jihozlanib, tarjimonlar ma’ruzachining

gapini ingliz tilida etkazib beradi. Endi ona diyorimiz O‘zbekistonimizning imkoniyatlaridan kelib chiqib fikr yuritmoqchiman.

Yurtimizdagi har bir Oliy ta’lim muassasasidagi ma’ruzalarni birdaniga 2 tilda tashkil qilish juda mushkul va bunday jarayon hali yurtimizda kuzatilmaganligini hisobga olib, bu yilgi magistraturaga eng kam hujjat topshirgan bironta oliy ta’lim muassasasi tanlab olinsada o‘sha oliy ta’lim muassasasidagi bakalavrning so‘nggi bosqichiga kelgan kurslarda tajriba sifatida ma’ruza darslari o‘zbek va ingliz tilida 1 yil davomida olib borilishi yo‘lga qo‘ysak. 1 yildan so‘ng ularning qanchasi magisraturada o‘qishni davom ettirmoqchi. Shundan xulosalarni hosil qilib ko‘rib chiqishimiz mumkin. Masalaning yana bir tomoni borki, aytaylik, talaba yil davomida ingliz tilida ma’ruza tinglasa oraliq va yakuniylarni qaysi tilda topshiradi. Bu borada o‘zbek tilida barcha fanlardan ballarini oladilar.

Maqsad talabalar ozgina bo‘lsa ham chet tillarini o‘rgansin, dunyo hamjamiyatida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni, yangiliklarni chet tillari orqali o‘z holicha qabul qilishga erishish, talabalar mustaqil ishlashiga turtki bo‘lishi, eng asosiysi, magistraturaga tayyorgarlik vazifasini bajarib beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning farmoniga ko‘ra yurtimizdagi barcha universitet va institutlari bosqichma-bosqich Kredit-modul tizimiga o‘tmoqda. Ayrim Oliy ta’lim muassasalari Kredit-modul tizimida yaxshi darajadagi natijalar kuzatilmoqda. Bu Xalqaro standartlarga javob bera oladigan Kredit-modul tizimi orqali ta’limdagi shaffoflikka erishilmoqda. Qog‘ozbozchilikka ancha chek qo‘yilib, professor-o‘qituvchilar ham, talabalar ham telefon, kompyuter, planshetlar orqali ta’lim olish jarayoni elektronlashtirildi. Hemis platformasi orqali talabalar o‘zlari haqidagi ma’lumotlarni, fanlardan kerakli manbalarni, talabaga chiqarilgan buyruqlarni, agar joriy, oraliq, yakuniy nazoratlar uchun topshiriqlar joylansa, o‘zlarining shaxsiy kabinetlariga kirib bajara olishi talabalarga qulayliklar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq pedagogika institut va universitetlarda o‘qish 2022-2023-o‘quv yilidan 2;3;4-kurslar uchun “4+2” tizimida tashkil qilingani e’tirof etishga loyiqdir. Talabalar o‘zlari auditoriyada o‘rgangan nazariy bilimlarini bir haftadagi 2 kunlik amaliyot jarayonida mustahkamlayapti. Bu jarayon talabalar o‘zlarining oldiga katta maqsad qo‘yib, bakalavrni bitirib maktabga borganda ham qiynalmasdan ishlab ketishiga poydevor vazifasini bajaradi. Prezidentimizning farmoniga muvofiq tasdiqlangan 2026-yilgacha O‘zbekistonni rivojlantirishga qaratilgan Taraqqiyot strategiyasida Oliy ta’lim muassasalarini Xalqaro reytinglarga kirishga tayyorlash maqsadi ham belgilangan.

Xalqaro reytinglarga kirgan xorij davlatlardagi Universitetlarning tajribasini ularning imkoniyatlarini va dunyo talabiga qay darajada javob berishini ko‘rib chiqib, ularning yurgan yo‘llarini o‘zimizga moslashtirsak natija yomon bo‘lmaydi deb o‘ylayman. Shu borada dunyo miqyosida TOP-10 talikka kirgan Amerikadagi Massachusettes Texnologiya institutini ko‘rib chiqsak. Internat tarmog‘idan ushbu institut haqida joylangan ma’lumotlarni ko‘rib tahlil qilib shuni ayta olishim

mumkinki, institutning bitiruvchilari har doim jahon mehnat bozori talablariga javob beredi. Statistik ma’lumotlariga ko‘ra bitiruvchilarining 20 foizi turli tarmoqlar va professional konferensiyalarga ishga joylashadi. Bitiruvchilarning 35 foizi bakalavrdan keyingi ta’limda, ilmiy tadqiqotlarda, ilmiy ishlarda o‘z faoliyatlarini davom ettiradilar. Eng qiziqarli ma’lumotlardan biri Massachusettes Texnologiya instituti bitruvchilariga Google, Apple, Oracle, Boeing, Microsoft, Amazon, AQSh floti, AQSh havo kuchlari va shunga o‘xshash kompaniyalar ish taklif qilishadi. Ushbu institut bitiruvchilari, asosan, robotshunoslik, sun’iy aql va axborot texnologiyalari sohalari bo‘yicha nafaqat Amerika balki butun dunyoga mutaxasislar etkazib bermoqda. Talabalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash stipendiyalar borasida ham dunyoda etakchi hisoblanadi. Massachusettes

Texnologiya institutiga kirish juda qiyin hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu institutga o‘qishga kirish uchun talabgorlarning har 10 tasidandan 1 nafari kirayotganligi qayd etilgan. Institut tomonidan bo‘lajak talabalariga qo‘yiladigan asosiy talablar ingliz tilini bilish darajasi, matematika, biologiya, fizika kabi fanlarni bilish darajasi, institutning rasmiy saytiga ariza va motivatsion insho joylash. Massachusettes Texnologiya institutiga o‘ziga ishongan maqsadini katta qo‘ya olgan abituriyentlar ko‘proq topshiradi. Endi yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aynan, O‘zbekistondagi talabalarga baho bermoqchiman. Hammasi desam xato bo‘ladi-yu, lekin aksariyat talabalar

Oliy ta’lim muassasasiga kirishni asosiy maqsad sifatida qarashadi. O‘quv yurtiga kirish yillar davomida abituriyentlar uchun qiyin bo‘lganligi, qabul jarayonida korrupsiyaning avj olib ketganligi kirish imtihonlarining nufuzini oshirib yuborgan edi. Oddiy xalq orasida hattoki hozirda ham kuzatilayotgan holat Oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim yo‘nalishlarining obro‘sini qabul jarayonida talabalarning to‘plagan ballariga qarab baho berishmoqda. So‘nggi 3 yillikda Oliy ta’limga kirish imtihonlarida shaffoflik, savollarning engilashtirilganligi, savollar aynan darsliklardan tuzilganligi, to‘lov-shartnomalar uchun talaba kreditlari ajratilayotganligi talaba bo‘lish imkoniyatini oshirib qolmasdan kirish imtihonlarining nufuzini birmuncha tushirdi. Prezidentimiz tomonidan qo‘yilayotgan talablardan biri Oliy ta’limga qamrovni 2026-yilgacha 50 foizga etkazish belgilangan.

So‘nggi 3 yillikdagi kirish imtihonlaridagi o‘zgarishlar bu yo‘ldagi natijalarni oshirib berdi. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan chiqarilgan mutaxasislar qanchalik ishga joylashib, ish beruvchilarning talablarini qondira olish masalalari bizda hal qilinishini kutmoqda. Yurtimizdagi pedagogika, yuridik, iqtisodiyot sohalariga mutaxasis tayyorlab berayotgan universitet va institutlar ish beruvchilarning talablarini qondira olishayapti.

Kerak bo‘lsa oylik maoshi juda kam bo‘lib qolganda ham shu kasbda ishini sevib davom ettiradigan kadrlarni tayyorlash kerak. “El-yurt umidi jamg‘armasi” orqali Amerikaga o‘qishga ketgan talabalarning motivatsion videolari chiqqanda ko‘rgan edim. Ularda dunyodagi eng zo‘r universitetlarda o‘qib, xulosalarini qarang: “O‘zbekistonga bironta yangi yo‘nalishni olib boraman. Mayli menga ish haqi ham kerak emas. Qaysidir soha O‘zbekistonda rivojlanishiga hissa qo‘shsam bo‘ldi ”.

Bunaqa misollar ko'p. Aytmoqchimanki, O'zbekiston hududida yashab, shu hududda o'qiyotgan talabalarni ruhiyatini ham yuqoridagi kabi shakllantirish kerak. Shuncha qarorlar, farmonlar, qonunlarning ijrosi kutilganidan ortiq natija berishi biz yoshlarga bog'liqdir. Ushbu maqolani davom ettirib pedagogika o'zimizning sohadagi yangiliklarga to'xtab o'tsam.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro tadqiqotlarini joriy etishilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan. Mazakur xalqaro baholash dasturlari doirasidagi ishlar xorijiy davlatlar, xususan, Finlandiya davlati bilan hamkorliklar yo'lga qo'yilgan. Finlandiya maktablarida tashkil qilingan o'qitish yurtimizdagi maktablarida tajriba asosida olib kirilmoqda. Agar Finlandiya ta'lim tizimi maktablarimizda joriy qilinadigan bo'lsa, o'qituvchilar va bo'lajak o'qituvchilardan pedagogik salohiyat, yangilikni tez o'zlashtirish talablari qo'yiladi.

Xulosa. Ushbu maqolaga xulosa qilib aytamizki, O'zbekiston Respublikasidagi islohotlar doimo e'tirofga loyiq bo'lgan. Lekin shunday bir haqiqat borki, yurtimizdagi qonunlarning ijrosi har doim ham kutilgan natijani bermagan. Ta'lim tizimidagi yangi qarorlar, farmonlardan doimo ta'lim oluvchilar manfaatdor bo'lishgan. Biz o'qituvchilar Prezident, Hukumat, Oliy Majlis qarorlari ijrosida ongli ravishda harakat qilishimiz kerak. Maktabda o'qish jarayonida bolalarga yoshlikdan Vatan ishonchi, Vatanga sadoqat, Vatanga, oilaga xizmat, yuqori sinflarda esa Vatanparvarlik, komil inson bo'lish, mafkuraviy immunitet, ma'naviyat, ma'rifat kabi tushunchalar shaklantiriladi. Darhaqiqat, bugungi kunda 18 yoshdan boshlab jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanib ulgurgan biz talaba-yoshlarda yuqoridagilarning hammasini bor deb ayta olmaymiz. Oddiygina ta'lim jarayonidagi korrupsiyani yo'q qilish borasidagi ishlarni bir eslaylik. Korrupsion holatlardagi javobgarlik kuchaytirildi. Oliy ta'lim tizimi Kredit-modul orqali elektronlashtirildi. Ungacha korrupsiyaga qarshi kurashilmadi deb ayta olmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori T.:2022-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni T.:2022-y
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida "gi farmoni T.: 2019-y
4. Andreas Shlyayxer "Jahon miqyosidagi ta'lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak" R.Axmatova, D.Norboyeva tarjimsi T.: "Zamin Nashr" nashriyoti, 2022-yil